

“TOP IZLANUVCHI - 2025” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

қилиш, асраш, тарғиб қилиш ва улардан фойдаланиш давлат дастурини тасдиқлаш тұғрисида”Халқ сүзи газ.2010. йил 8 октябр.

3. Ўзбекистон Республикасининг Конститутцияси// -Т.; “Ўзбекистон”,- 2014.-396.

4. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тұғрисида” ги Қонуни ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” тұғрисида. «Маърифат» газетаси,2020.23- сентябр.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Респубблакасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тұғрисида” ги ПФ-4947-сон Фармони// -Т.; Маънавият газ. 2017.-56.

SHARQ ALLOMALARINING MUSIQIY NAZARIY MEROSI

Xasanboyeva Fotima Abduaizovna

*Farg’ona viloyati Farg’ona tumani 26-Bolalar musiqa va san’at maktabi
“Musiqiy-nazariy” fanlar o’qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Sharq allomalari Farobiy, Xorazmiy, Ibn Sino, Sayiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog’iy, Abduraxmon Jomiy, Navoiy kabi ulkan omillar tomonidan qoldirilgan musiqiy nazariy meros xaqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Farobiy, Xorazmiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog’iy, Abdurahmon Jomiy, Navoiy.*

Mumtoz musiqa va uning tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lgan kasb-hunar azaldan amaliy va nazariy bilimlами о‘з ichiga oluvchi yagona ilm hisoblangan. Sharq klassik musiqasining nazariy masalalari Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog’iy, Abdurahmon Jomiy kabi ulkan olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Ulaming asarlari musiqa ilmining poydevorini tashkil qiladi. Risolalarda mumtoz musiqaning ijtimoiy hayotdagi o‘mi, tarixiy shakllari, ijrochilik masalalari hamda ular negizidagi kuy va usul tuzilmalarining tarkib topish qonun-qoidalari batafsil yoritilgan. Nomlari zikr etilgan musiqashunoslarda har birining o‘ziga xos tomonlari bo‘lishi bilan bir qatorda umumiyy qarashlar, vorisiylik rishtalari, izchil an’analar ham yaqqol sezilib turadi. Ular ijodi tabiiy ravishda bir-birini to‘ldirib, umuman, mumtoz musiqa asoslariga nisbatan yagona ilmiy an’ana bo‘lib gavdalanyadi. Forobiy (taxallusi, to‘la nomi esa Abu Nasr Muhammad ibn Uzlug Tarxon Forobiy) - o‘rta asr Sharq musiqa madaniyatining eng yirik namoyandası. Fanda Forobiyning hayoti va faoliyatiga

doir aniq ma'lumotlar, afsuski, juda oz. U 873-yilda Sirdaryoning Forob deb nomlanuvchi joyida tug'ilgan (hozirgi Qozog'istonni Chimkent viloyati hududi). Forobiyning otasi harbiy xizmatchilik qilgan. Uning yoshligi o‘z vatanida o‘tgani va yigitlik chog‘larida Toshkent, Buxoro va Samarqandda bo‘lgani, unda tahsil ko‘rgani ma'lum. Keyinchalik Forobiy o‘z bilimini oshirish maqsadida xalifalikning madaniy markazi Bag‘dodga qarab yo‘l olgan. U Eronning Isfaxon, Hamadon, Ray shaharlarida ham bo‘lgan. Taxminan 940-yildan u Damashqda yashagan. Forobiy umrining keyingi yillari esa Xalab (Aleppo) shahrida o‘tgan. U Sayfuldavla Hamdamiy huzurida xizmat qilib, uning iltifotiga sazovor bo‘lgan. Manbalarda ko‘rsatilishicha, u zabardast bastakor hamda ud, tanbur, g‘ijjak, nay, chang va qonun asboblarining mohir ijrochisi bo‘lgan. Forobiy o‘tkir didli va ajoyib musiqaviy qobiliyati tufayli 0 ‘rta va Yaqin Sharqda yashovchi turli xalqlaming musiqa madaniyati bilan yaqindan tanish bo‘lgan. Uning musiqaviy qarashlarining shakllanishida, ayniqsa Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining musiqiy merosi katta ta’sir ko‘rsatgan. Bu xalqlarning musiqa merosining ilmiy va amaliy tomonlarini chuqur o‘zlashtirganligi Forobiyning asarlarida ma'lum bo‘ladi. Forobiy musiqa ilmi va amaliyotida bab-baravar dong taratgan. Uning ijrochilik va bastakorlik ijodi shu qadar yuksak cho‘qqilarga erishganki, xatto bu to‘g‘rida xalq orasida ko‘plab afsonalar yuzaga kelgan. Afsonalaming birida Forobiyni soz chalib, kuy ijro etib, odamlami sarosimaga solganligi, gohida jo ‘shqin kishilarai xomush ahvolga tushirib, ba’zan esa ziyraklami uxlatib, shinavandalami hayratda qoldirganligi to‘g‘risida rivoyatlar mavjud. Ilmda esa, u olamshumul ahamiyatga molik asarlar bunyod etib, musiqashunoslik tarixida so‘nmas iz qoldirgan. Forobiy musiqaga oid ko‘p asarlar yozgan. Manbalarda uning “Ilmlar klassifikatsiyasi” (“Ixso al-ulum”), “Katta musiqa kitobi” (“Kitob al-musiqa al-kabir”), “Musiqa kirish” (“Mad-hal filmusiqा”), “Ritmlar klassifikatsiyasi kitobi” (“Kitob ixsa al-iko”) va boshqa ko‘plab asarlari tilga olinadi. Bu asarlaming ayrimlari qo‘lyozma sifatida dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Zamonaviy ilmga Forobiyning asosan, ikkita musiqa asari keng joriy qilingan. Ular - “Ilmlar klassifikatsiyasi kitobi”ning musiqaga bag‘ishlangan bo‘limi va “Katta musiqa kitobi”dir. Musiqa ilmi masalalarining atroflicha va chuqur yoritilishi jihatidan o‘z davrida tengsiz bo‘lgan “Katta musiqa kitobi” jahon fanining shoh asarlaridandir. Forobiy bu asarida oldinlari boshqa fanlaming tarkibiy qismi bo‘lgan musiqani, mustaqil ilm darajasiga ko‘targan. “Katta musiqa kitobi”ning dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadigan bir necha nusxalari ma'lum. Forobiy tavalludining 1100 yilligi munosabati bilan arab olimlari Zakariyo Yusuf hamda Mahmud Dafniy tomonidan mavjud qo‘lyozmalar asosida kitobning mukammal matni tayyorlanib, nashr qilindi. Bu kitob musiqa olamida ko‘p asrlar davomida mashhur. 0 ‘rta va

Yaqin Sharq musiqa fanida u doimo eng nodir va markaziy asarlardan biri bo‘lib xizmat qilib kelgan. Sharq musiqa ilmida Forobiy ijodi bilan aloqador bo‘lmagan biron-bir ko‘zga ko‘ringan olimni topish qiyin. “Katta musiqa kitobi” Yevropada ham anchadan buyon ma’lum. U dastlab XII asrda Zohid Guldislav tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan edi. So‘nggi vaqtarda “Katta musiqa kitobi” bir qancha xorijiy tillarga ham ag‘darilgan. 1840-yilda nemis sharqshunosi Land kitobning cholg‘u asboblariga oid qismini lotin tiliga tarjima qilgan. XX asming 30-yillarida “Katta musiqa kitobi” baron Rudolf D.Erlanje tomonidan fransuz tiliga to‘la tarjima qilinib, “Arab musiqasi” to‘plamida chop etilgan. Ushbu tarjima orqali Forobiy merosi Yevropaga keng joriy qilingan. “Katta musiqa kitobi”ning turli boblari fors va turk tillarida ham nashr etilgan. Bu asar rus, o‘zbek va qozoq tillariga qisman tarjima qilingan. Asar muqaddimasida, Forobiyning ta’kidlashicha, “Katta musiqa kitobi” ikki qismdan iborat bo‘lgan. Birinchisida ushbu ilmning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan bo‘Isa, ikkinchisi - o ‘tmish olimlarining musiqa ilmidagi “xatolariga” izohlar berishga qaratilgan. Kitobning ana shu so‘nggi qismi bizgacha yetib kelmagan. “Katta musiqa kitobi”ning hozirgacha saqlangan nusxasining o‘zi ham ikki qismdan iborat. Birinchisi - “Musiqa san’atiga kirish” (“Madxam sinoatu fil-musiqa”), ikkinchisi - “Asosiy qism” (“Juzvi asl”) deb nomlanadi. 0 ‘z navbatida “Musiqa san’atiga kirish” har biri ikki bobdan iborat bo‘lgan ikki faslga ajratiladi. Asosiy qism esa birinchisi - ikki, ikkinchisi - uch, uchinchisi ham uch bobdan iborat uch faslni tashkil qiladi. Shunday qilib, “Katta musiqa kitobi” jami 12 bobdan iborat. Yuqorida qayd qilinganidek, Forobiy musiqa ilmini nazariy va amaliy qismlarga ajratadi. Nazariy ilm musiqani asoslari (tub qonunlari) va ularni o‘rganish uslublari haqida fikr yuritadi. Har qanday nazariy ilmda insonning kamol topmog‘i uchun uch narsa kerak deydi: 1. Uning asoslarini egallash. 2. Shu fan asoslardan kerakli natijalar chiqara bilish. 3. Shu fanga oid xato natijalami topa olish, o‘zga olimlar fikrini chuqur tushuna olish, ulaming yomon fikrlaridan yaxshilik kashf eta bilish, yo‘l qo‘ylgan xatolami tuzata olish, - deb yozadi “Katta musiqa kitobi”ning debochasida Forobiy. Forobiy ilmu ta’lifining yuqorida zikr etilgan har bir kategoriyasini keng va mukammal bayon qiladi. Ilmu ta’lif dastlabki tushuncha tovushning musiqaviy va fizik xususiyatlarini o‘rganishdan boshlanadi. Tovush biron-bir qattiq yoki yumshoq tananing tebranishidan hosil bo‘ladigan fizikaviy hodisa, deb ta’riflanadi. Keyinchalik tovushning akustik xususiyatlari, ya’ni tebranuvchi tananing hajmi va tovush baland-pastligi o‘rtasidagi munosabatlar, turli cholg‘u asboblari misolida ochib beriladi hamda ulaming miqdorlarini matematik uslubda ifodalash omillari tushuntiriladi. “Kuylar qasida va she’r bilan qiyoslanadi. She’riyatda dastlabki element harflar bo‘lib, ulardan sabab, vataf, ularning qo‘shilmasidan misra va

baytlar hosil bo‘lgani kabi, kuylar tuzilishida ham dastlabki va ikkinchi darajali elementlar borki, ulardan qasida va she’r bilan solishtirilayotgan kuy kelib chiqadi. She’riyatdagi harflar vazifasini kuylarda o‘taydigan narsa nag‘malardir” - deb yozadi Forobiy. Demak, tovushdan kelib chiqadigan tushuncha - nag‘ma (musiqaviy tovush, ton, pardadir. Forobiy nag‘malarining pastbalandlik sabablari, mutanosiblik omillari va shu xususiyatlar orqali hissiyotga ta’sir ko‘rsatish masalalari ustida mulohaza yuritadi (Forobiy. “Katta musiqa kitobi”, Kohira, 1967-yilda chop qilingan). Bo‘d (interval) kategoriyasi ilmu ta’lifning markaziy tushunchalaridan hisoblanadi. Chunki, parda hali o‘zi, alohida kuy bo‘lagi bo‘la olmaydi. Intervallar hosil bo‘lishini Forobiy tebranadigan tananing hajmi va miqdorini o‘lchash va yuzaga kelgan bo‘laklami sonlar nisbatida ifodalash yo‘li bilan tushuntiradi. Tovush balandpastligini belgilovchi omillar turlichadir, torli cholg‘ularda torning uzunligi va yo‘g‘onligi, puflab ijro etiladigan asboblarda havo tebranadigan tananing uzunligi, bo‘yi va eni. Ammo, bular orasida eng muhimi uzunlikdir. Shuning uchun asosan uzunlik miqdori o‘lchanadi.

XORAZMIY

Birinchi bo‘lib bu manbani o‘rgangan va 1160 yildagi qo‘lyozma nusxasi asosida uning aniqlangan matnini 1895 yilda nashr qildirgan olim, gollandiyalik sharqshunos Van Flotendir

“Ilmlar kaliti” o‘ziga xos qomusiy asar bo‘lib, o’sha davrdagi deyarli hamma asosiy fan sohalarini qamrab olgan. Muallif o‘rta asrlardagi har bir fan mazmunini asosiy atamalarini sharhlash yo‘li bilan tushuntirib bergen. +

“Ilmlar kaliti” ikki qismdan tarkib topgan. Jami 15 bobi bo‘lib, musiqa ilmiga bag‘ishlangan bob uch fasini o‘ziga birlashtiradi. O‘zidan oldin o‘lgan olimlarning musiqa haqidagi ta’limotini davom ettirgan Abu Abdulloh al-Xorazmiy uni riyoziyot ilmlari qatoriga qo’shami.

Birinchi fast musiqa cholg‘ulariga bag‘ishlangan va bu erda 14 ta cholg‘u sanab o’tiladi va ayrimlariga ta’rif beriladi. Mazkur fasl odatga ko‘ra, avval “musiqa” so‘zining kelib chiqishi, so‘ngira Markaziy Osiyoda o’sha vaqtida qo’llanilgan turli musiqiy cholg‘ular nomlari va ularning kelib chiqish joylari beriladi. U tanbur, surnay, chang, shohrud va boshqa cholg‘ular shakllari va tuzilishi haqida fikr yuritadi. Ud tuzilishi haqida bat afsil ma’lumot beradi, so‘z etimologiyasi va tor nomlarini aytib o’tadi.

Ikkinchi fasi jamlarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ovoz, nag‘ma, bo‘d, jins va jamlar haqida fikrlar beriladi. Uchinchi fast ritm (iyqo) masalalariga bag‘ishlangan va ettita ritm sanab o’tiladi.

Abu Abdulloh Xorazmiyning “Ilmlar kaliti” asarining musiqaga oid bobi hozirgi zamon o’zbek musiqasining ayrim muammolarini hal etish uchun qimmatli manbadir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, X-XII asrlar O’rta Osiyo xalqlarining madaniyati taraqqiyotida katta o’rin egallagan yangi hir bosqich bo’ldi. Bu bosqichda O’rta Osiyo jahon madaniyati taraqqiyotining yirik markaziy o’choqlaridan biri bo’ldi. O’rta Osiyo olimlari jahon ilm-fanini o’z kashfiyotlari va ilmiy asarlari bilan boyitdilar, uning bir necha asrlik taraqqiyotiga samarali ta’sir etdilar. Shu bilan birga, O’rta osiyo xalqlari madaniy hayotning arxitektura, tasviriy san’at, musiqa, naqqoshlik, o’ymakorlik kabi boshqa sohalarida ham benihoya katta yutuqlarga erisha oldilar.

IBN SINO

Ibn Sino o’zidan oldin o’tgan yunon faylasuflari Aristotel, Ptolomey, Evklid, shuningdek, Sharq olimlari Xorazmiy, Kindiy va Forobiy asarlarini ijobiy o’zlashtirib, musiqa ilmida mustaqil ta’limot yaratdi. Qo’yilgan masalalaming kengligi, yoritilishining chuqurligi nuqtayi nazaridan o’z zamonida beqiyos bo’lgan Ibn Sino ta’limotining ahamiyati davr doirasi bilan cheklanmasdan, balki u Sharq va G’arb musiqasining keyingi rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Abu Ali ibn Sino musiqa ilmini yoshligidanoq puxta egallagan. Ibn Sino tarjimayi holida yozilishicha, yoshligida riyoziyot (matematika) ilmlarini puxta o’rgangan. Ma’lumki, musiqa ilmi matematikaning tarkibiy qismi bo’lgan. Ibn Sino buyuk matematik va musiqashunoslar Ptolemy va Evklid asarlari bilan tanish bo’lgan. Ibn Sinoning navqiron davri ona shahri Buxoroda o’tgan. Bu davrda Buxoro rivojlangan shaharlardan edi. Somoniylar poytaxti madaniy hayotining diqqatga loyiq tomonlaridan biri shuki, unda xalifalik hukmronligidan chiqish va mahalliy an’analarga qiziqish kuchaygan edi. Ana shu umumiyo yo’nalish ostida Markaziy Osiyo va Eron xalqlarida keng tarqalgan. Ibn Sino yashagan davrda, yangi talablarga bo’ysundirilgan holda qayta o’zlashtirilgan. Rost, Zangula, Zirafkand, Raxoviy, Navro’z va shunga o’xshagan qadimiy yo’llar O’rta va Yaqin Sharq professional musiqasining yangi tuzimi - maqomlar tarkibiga singa boshlagan. Bu davrda Buxoroda va keyinchalik Ibn Sino yashab ijod etgan Urganch, Ray, Hamadon kabi markaziy shaharlarda bastakorlar, ustoz xonanda va sozandalar ijodining barq, urishi, musiqa tafakkurining yuksak namunalaridan bo’lgan maqomlaming joriy qilinishi musiqa ilmiga ham katta ehtiyoj tug’dirdi. Ibn Sino asarlari esa bu borada bebahoh ahamiyat kasb etadi. Musiqa ilmiga oid masalalar Ibn Sinoning ko’plab asarlarida o’z ifodasini topadi. Afsuski, ulaming hammasi ham bizgacha yetib kelmag’an. Masalan, Ibn Usayba tilga olgan “Madhal san’ati al musiqa” (“Musiqa san’atiga kirish”), Ibn Sinoning o’zi “Shifo” kitobida qayd qilgan «Kitob al lavohiq (“Qo’shimchalar kitobi”) kabi

musiqaga oid asarlar hanuzgacha fanga ma'lum emas. Ibn Sinoning musiqa merosi asosiy yirik qomusiy asarlari orqali bizgacha yetib kelgan: “Shifo” kitobining “Javomi ilm-al musiqa” (“Musiqa ilmi yig‘indisi”) deb nomlanuvchi bo‘lagi; “Najot” kitobining “Muxtasar ilm-al musiqa” («Musiqa ilmi haqida qisqacha ma'lumot»); «Donishnama»ning musiqaga oid qismlari. Bundan tashqari, Ibn Sinoning boshqa fanlarga bag‘ishlangan “Tib qonunlari” va “Ishq risolasi” kitoblarida ham musiqaga tegishli ma'lumotlar berilgan. Ibn Sinoning musiqaga oid qarashlari “Javomi ilm-al musiqa”da to‘laroq aks ettirilgan. “Muxtasar ilm-al musiqa” va “Donishnama”ning musiqa qismlari esa o‘sha asar asosida tuzilgandir. Ibn Sino musiqa borasidagi qarashlarining asosiy xususiyati hamda Forobiy ta’limotidan farqli tomonlaridan biri shundaki, Ibn Sino o‘z musiqa nazariyasini (asosan ilmu ta’lifni) ko‘proq tovushning fizik xususiyatlariga qarata tuzishga intiladi. Forobiy esa nazariyani ko‘proq tajriba va idroklash qonuniyatları bilan bog‘laydi. Bunda Ibn Sino ta’limotining kuchli va zaif tomonlari namoyon bo‘ladi. Zaif tomoni shundan iboratki, Ibn Sino musiqaning ichki tuzilish va idroklash qonuniyatlarini mutlaqlashtirmoqchi bo‘ladi. Kuchli tomoni shundaki, musiqani faqat tajribaning o‘ziga bog‘lab qo‘ymasdan, uni fan va ilmiy tafakkur yordamida rivojlantirishga da’vat etadi. Ibn Sino zamonida maqom iborasi hali keng joriy qilinmasdan professional musiqa namunalari yuqorida zikr etilgan roq, navo, parda nomlari bilan yuritilgan. Bular maqomlaming prototiplari edi. Ibn Sinoning musiqaviy ta’limotida estetika, nazariya va amaliyotga oid qator dolzarb masalalar o‘z aksini topgan. Musiqani inson faoliyatining mahsuloti, aloqa vositasi deb tushunishga asoslangan Ibn Sino estetikasi, o‘rtalasrlar musiqa tafakkurining eng ilg‘or ko‘rinishlaridan biridir. Ibn Sino o‘zining “Javomi ilm-al musiqa” asarini idealistik qarashlami to‘g‘ridan to‘g‘ri rad qilishdan boshlaydi: “Biz musiqa pardalarining munosabatini falaksiymolar va ruhning axloqiy xususiyatlariga qiyos qilishga e’tibor bermaymiz, chunki bu bir ilmni ikkinchisidan ajratib ololmaydiganlaming odatidir”. U, musiqani progressiv yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlash, idealistik qarashlardan muhofaza qilishda o‘rtalasrlar sharoitida juda katta ilmiy matonat edi. Ibn Sinoning ilmu ta’lif nazariyasida ham uning barcha kategoriyalari, tovushdan to murakkab tuzilmalargacha ko‘rib chiqiladi. Uning ilmu ta’lifi quyidagi tovush sistemasiga asoslanadi. Forobiy jadvalida tovushlar sistemasining negizini tabiiy intervallar tashkil qiladi. Bu hoi ayrim tadqiqotchilarga Ibn Sino musiqada “sof pardal tuzimi”ning bunyodkori deyishga asos bergan. Aslida esa Ibn Sinoda “sof pardal tuzimi”ni polifonik yoki garmonik kansadolikning asosi deb tushunish hali bo‘lmagan edi. Bu intervallami afzal ko‘rish esa musiqani tabiiy asoslarga yaqinlashtirish istagi bilan bog‘liq edi. Ibn Sinoning ilmu iqbaliy borasidagi qarashlari ham diqqatga sazovor. U kuyning

go‘zalligini va ichki xususiyatini ko‘p jihatdan mutanosib vaznga bog‘laydi, shunga ko‘ra, vaznni musiqaning muhim omili deb biladi. Olim o‘z davrida mashhur bo‘lgan. 1. Akustika qonuniga ko‘ra, har bir tovush tarkibida lco‘plab tovushlar mavjud. Ular obertonlar deb yuritiladi va ma’lum tar- tibda joylashgan bo‘ladi. Obertonlar tartibi tabiiy tovush qator, intervallari esa tabiiy intervallar deyiladi. 2. Musiqada uchta asosiy parda tuzimi mavjud. Ular Pifagor, sof va temperatsiyalashgan parda tuzimlari deyiladi. Bu borada Ibn Sino Aristotel an’analarining davomchisi bo‘lib, musiqa va she’riyat masalalarini davom qildirgan donishmanddir. She’riyat va musiqa orasida eng katta ko‘prik vazn ekanligini qayd qilgan Ibn Sino, vazn masalalariga, musiqa va she’riyat tabiiy uyg‘unlashuvi muammolariga alohida e’tibor bergen. She’riyat va musiqaning vazni ular mazmunini chambarchas bog‘lanishi, musiqa asari mukammalligining eng muhim shartlaridan biri deb bilgan. Ibn Sino musiqa cholg‘ularini ham keng o‘rgangan. E’tiborli tomoni shundaki, odam ovozini olim eng mukammal asbob deb bilgan va boshqa cholg‘u asboblari esa shunga qiyos qilib o‘rgangan. Ibn Sinoning sevimli asbobi g‘ijjak bo‘lgan emish. U g‘ijjakni odam ovoziga eng yaqin turadigan tabiiy va qoyilmaqom cholg‘u asbobi deb bilgan. Bundan tashqari ud, tanbur, rubob, nay, surnay va qonun asboblari to‘g‘risida ma’lumotlar berib, ulaming ijrochilik xususiyatlari, o‘zaro qo‘shilishiga tegishli ko‘p masalalarga to‘xtalib o‘tgan.

ABDURAHMON NURIDDIN ABDURAHMON JOMIY

Abdurahmon Nuriddin Abdurahmon Jomiy Xurosonning Jom shahri (1414-1492)da tug‘ilgan. Uning otasi Nizomiddin Ahmad yirik mhoneiy - shayxulislom edi. Jomiyning go‘daklik chog‘ida oila Hirotga ko‘chib boradi va o‘sha yerda istiqomat qiladi. Abdurahmon Jomiy o‘qishga juda erta kirishadi, tez orada xatsavodini chiqarib oladi va turli xil ilmlami havas bilan o‘rgana boshlaydi. Jomiy maktabdan keyin Hirotning Dilkash madrasasida ulkan adabiyotshunos olim Mavlono Jo‘nayd qo‘lida saboq ola boshlaydi. Jomiy xususan 0 ‘rta Osioning mashhur filologi Sa’daddin Mas’ud Taftazoniyning (1322-1389) “Muxtasar al-manon” va “Mutavval” kitoblarini katta ishtyoq bilan o‘qiydi. Jomiy Taftazoniyning shogirdi Jojarmiy va mashhur mudarris Aloiddin Aliy Samarqandiydan ta’lim oladi. U Hirot tahsili bilan qanoatlanib qolmay, bilimini oshirish maqsadida Samarqandga keladi, Ulug‘bek madrasasida o‘qiydi, qozizoda Rumiy va mashhur olimlaming mashg‘ulotlariga qatnaydi. U Bahouddin Naqshbandning izdoshlari bo‘lgan Shayx Sa’daddin Qoshg‘ariyga (1456-yilda vafot etgan) murid tushib, tasaw uf bo‘yicha ta’lim oladi. Jomiy bir qator badiiy, ilmiy va diniy-tasawufiy asarlar yaratadi. Hirot va boshqa shaharlaming ko‘pgina ilm, san’at va adabiyot ahllariga ustoz hamda ilmiy va adabiy tortishuvlaming hakami (arbitri) bo‘ladi. Uning obro-e’tibori kundan-kunga oshib boradi.

Temuriy hukmdorlar, Husayn Boyqaro, shuningdek atrof o‘lka va viloyatlaming hokimlari Jomiyni hurmat qilib, uni in’omlar bilan taqdirlaydilar. Jomiy daromadlarini ko‘proq obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san’at va adabiyot ahllariga sarf qiladi. Abdurahmon Jomiy boshqa ilmlar bilan bir qatorda musiqa ilmi bilan ham shug‘ullangan. Intervallar nazariyasi o‘tmishda Sharqda atroflicha o‘rganib kelingan. Lekin eski zamonaviy tushunchalar o‘rtasida katta farq bor. Masalan, nazariyada zul arbajan’t aniq maxrajning uchga nisbati, uch kasr to‘rt tushunilgan bo‘lsa, u (kelishilgan) taxminan qabul qilingan tovush munosabati qilib olinadi. Shunga binoan, oldingi musiqashunoslar tomonidan har bir maqomning aniq raqamlar bilan belgilangan tovushi ishlab chiqilgan. Ammo riyoziy uslubda ifodalangan bo‘dlar doim ham mutloq birlik bo‘lavermasligini e’tirof etish lozim. Bu fikr Abdurahmon Jomiyning “Risolayi musiqiy”sida ravshan bayon etilgan: “Shuni bilmoq kerakki, vujudga keltirilgan bu taqsimot emas, balki taqribdir. Zotan, sohibi amal barmog‘i bu: past yoki baland qo‘yilsa, nag‘ma eshitilishida sezilarli farq bo‘lmaydi. A. Jomiyning “Musiqa risolasi” debochasida hamdu sano ruhidagi g‘azal Sarahborlardan oldin usulsiz “katta ashula”ga o‘xshatib aytildigan lavhalarga aynan mos kelishligi e’tirof etildi. A. Jomiy risolasidagi she’r mazmunan musiqiyini ulug‘lash, uning ilohiy sifatlarini madh etishga qaratilgan qisqa, lekin o‘ta ma’noli baytlar sozandalar o‘z ishiga kirishish (kuy chalish, ashula aytish) dan oldin aytadigan duolarni eslatadi va bu o‘rinda Sarahborlaming ibodatomuz ruhiyatiga mos tushishi haqidagi ma’lumotlami berib o‘tgan. Risola musiqashunoslik tarixida juda katta ahamiyatga ega.

MAROG’IY

Marog’iy 1353 yil Marog’ a shahrida ziyolilar oilasida tavallud topib, dastlabki umumiyl va musiqiy tahsilni o‘z otasidan oladi. U yoshlik davridanoq Qur’oni Karimni yod bilgan, 10 yoshidan otasi bilan olimlar va shayxlarning majlislariga borar va u erda murakkab musiqiy asarlarni ijro etardi. Marog’iy she’riyatdan ham bohabar bo‘lib, bu yo’nalishda ham asarlar yaratgan. Xattotlikda ham yaxshi natijalarga erishgan edi. Keyinchalik Abdulqodir Jaloyirlar poytaxti bo‘lgan Tabriz shahriga ko‘chib keladi va Sulton Jaloliddin Uvays, so’ngra G’iyosiddin Ahmad saroyida nadim, saroy bastakori sifatida xizmat qiladi.

Amir Temur Bag’dod shahrini zabit qilgandan so’ng, bu shaharda vaqtincha istiqomat qilib turgan Hoja Abdulqodir Marog’yni ham boshqalar qatorida Samarqandga olib ketadi. Shundan boshlab Marog’iy Samarqandda Temur va temuriylar saroyida istiqomat qilib, faoliyat yurita boshlaydi. Bu davr uning hayotida eng mahsuldar yillar bo‘lib, natijada Abdulqodir "Maqosid-il alhon", "Jali-ul alhon" kabi asarlarini yaratadi. Alloma shuningdek, Samarqandda "Miyatayn zarb-ul fath", "Davri shohi" hamda qator yangi nuba (navbat)

turkumlarini ham yozgan. Musiqashunoslikka oid asarlarida musiqaning nazariy va amaliy masalalari haqida fikr yuritiladi. An'anaga ko'ra, Marog'iy o'z risolalarida Forobiy, ibn Sino, Urmaviy kabi olimlarning tadqiqotlarini davom ettirib, musiqa ilmida yangi pog'onalarini belgilaydi va o'zidan keyingi musiqashunos olimlar uchun salmoqli meros qoldiradi. "Maqosid-il alhon" asari muqaddima, 12 bob va xotimadan iborat. Asarning muqaddimada qismida "musiqa" atamasining ta'rifi; musiqa ilmining mavzusi, uslublari, ilm va amaliyotning o'zaro munosabatlari haqida bahs yuritiladi.

1-bobda muallif savt, nag'ma, bo'd kabi tushunchalarga doir I rmaviy va SHeroziy ta'limotlarini tanqidiy bayon etadi.

12-bobda muallif harfiy nota yozuvi (tabulatura) vositasida o'z asarlaridan ayrim namunalar keltiradi.

Xotima 6 fasidan iborat bo'lib, xonanda va sozandalarning majlisda o'zini tutish odobi, majlislaming turlari, musiqani tinglash odobi va odatlari masalasiga bag'ishlangan. O'tmishdoshlariga izdoshlik qilgan Marog'iy advor ilmini yangi qo'shimchalar bilan boyitdi. Masalan, Urmaviy tizimida doiralarning 84 turi, Sheroziyda esa 68 ko'rinishi qayd etilgan bo'lsa. Marog'iy ularning sonini 104 navgacha etkazgan edi. "Ritm doiralari ham ancha ko'paytirildi. Bu hol esa zamonasidagi musiqa amaliyotida sodir bo'lgan o'zgarish va yangiliklar bilan bevosita bog'liq edi", - deya xulosalaydi maqomshunos olim I.R.Rajabov. Shuningdek, Abdulqodir Marog'iy "Maqosid il-alhon" ilmiy asarining oltinchi bobida olimlar orasida birinchi bo'lib sho"balarni 24 ko'rinishda tizimlashtiradi hamda ularning ud torlarida hosil qilinishini bayon qiladi. Marog'iy, Urmaviy va Sheroziylardan farqli ravishda usul, kuy, cholg'uchilik muammolari va xonandalik ta'limi haqida ham ancha to'liq ma'lumot beradi, Bularning barchasi "o'z salaflariga nisbatan olg'a tashlangan katta qadam edi... Umuman, Xoja Abdulqodining musiqa risolalari uning o'z zamonasida va keyin yozilgan musiqaviy-nazariy risolalarning mundarijasi hamda mazmunini belgilab bergen edi". Amir Temur vafotidan so'ng Marog'iy Shohruh, Xalil Sulton va boshqa Temuriylaming saroyida xizmat qildi. Ma'lumki, Marog'iy bastakor sifatida 200 dan ortiq asar yaratgan Hirot yirik madaniy markazga aylangan davrda o'sha davrning buyuk shoirlari Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning ijodiy faoliyati alohida e'tibor talab qiladi. Abdurahmon Jomiy va musiqa. Sharqning ulug' allomasi, shoir va musiqashunosi Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy 1414-yilning 7 noyabr kunida Hirot yaqinidagi Jom shahrida tavallud topdi.

URMAVIY

Safiuddin Urmaviy o'z salaflari ishini davom ettirdi. U Forobiyning asarlaridagi ko'p nazariy masalalarga tanqidiy munosabat bildirdi. Uning o'zi ham

musiqiy risolalar yaratdi va bu risolalar X-XI asrlardan XV asrga o'tishda o'ziga xos "ko'prik" vazifasini bajardi.

Olimning o'z salaflari bilan qilgan munozarasi Sharq musiqa nazariyasidagi ko'pgina masalalarni aniqlanishida va rivojlantirilishiga sabab bo'ldi.

Urmaviy o'z risolalarida "O'n ikki maqom", "Ovoza" va "Sho"ba"lar masalasini birinchi bo'lib tizimlashtirib berdi 110. "Kitabul-advor" o'n besh fasldan iborat bo'lib, ularda nag'ma ta'rifi, pardalarning bo'linishi, bo'dlar nisbatlari, ohangsizlikning asosiy sabablari, ohangdoshlik tuzilishi, davrlar va ularning nisbatlari, ud torlarini sozlash va undan davrlar chiqarish, mashhur davrlar, iyqo davrlari kabi va boshqa masalalar yoritilgan edi.

Urmaviyning musiqa ilmiga bag'ishlangan ikkala asari ham arab tilida yozilgan va bizning davrimizgacha qo'lyozma ko'rinishida etib kelgan. Allomaning tizimi keyingi asrlarda O'rta Osiyoda musiqa ilmini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

O'n ikki maqom tizimi deyilganda, 12 maqom, ularning ma'lum qismlari asosida yuzaga kelgan tovushqatorlarning turlari bo'lmish 24 sho"ba, 6 ovoz va murakkabot deb atalgan lad ko'rinishlari tushuniladi. Urmaviydan so'ng bu tizim XV asr musiqashunos olimlari tomonidan yanada mukkammalashtirildi.

Safiuddin Urmaviy "o'z salaflari boshlab bergen ilmi musiqiyini yanada yuksak bosqichga olib chiqdi". Jumladan, uning "Kitab ul-advar" asarida musiqaning umumnazariy masalalari qatorida musiqiy davrlar masalasi ham yoritiladi. Olim Sharq ilmida birinchi bo'lib 12 doira (ja'm)ni tasnif etgan. Ammo uning asarlarida "maqom" atamasi iste'foda etilmaydi, balki bu o'rinda "ja'm", "doira" va "shudud" atamalari qo'llaniladi. Shuningdek, Urmaviyning advor ta'limotida O'n ikki maqom tizimiga mansub sho"balar qatlami alohida guruh sifatida tasnif etilmagan edi.

Shu o'rinda "maqom" atamasiga to'xtalib o'tish joizdir. "Maqom" atamasi arabcha so'z bo'lib, "istiqomat o'mi", "turar joy" ma'nolarida keladi. Musiqada esa maqom musiqa cholg'ularida kuy va ashulalarni tashkil etadigan tovushlaming joylashadigan o'rni, ya'ni pardalaridir. Maqom deyilganda musiqa cholg'ularining ijro etiladigan kuya mos qilib sozlanish ham tushuniladi. Hozirgi kunda maqom kuy va ashula yo'llari turkumi ma'nosini ifodalaydi.

Musiqa risolalarida mualiflar dastlab 12 maqom nomini sanab ko'rsatganlar, Ushshoq, Navo, Buslik, Rost, Husayniy, Hijoz, Rahoviy, Zangula, Iroq, Isfahon, Zirafkand va Buzurg "Ushshoq" iborasi arabcha "oshiq" so'zining ko'pligi, "oshiqlar" demakdir. Bu maqom lirik kayfiyatAMI ifodalagan. Sharq musiqa olimlari Ushshoqni eng qadimgi, ya'ni birinchi maqom, deb ataganlar.

Ushshoq maqomining tovushqatori miksolidiy natural ladiga mos keladi. "Navo" so'zi - kuy, ohang, mungli kuy ma'nolarida keladi. Navo ham qadimiy

maqomlardan biridir. Bu tovushqator coliy deb atalgan ladga mos keladi. "Buslik" so'zi, musiqa risolalarida ko'rsatilishicha Abu Salik ismidan olingan. Buslik maqomining tovushqatori frigiy ladiga mos keladi. "Rost" so'zi o'zbek, tojik xalqlarida rost, ya'ni mos keladigan ma'noda ishlatiladi. Rost maqomi "ummul-advor", ya'ni jam doiralarining onasi deb ham atalgan.

"Husayniy" so'zi ma'lum shaxsning ismi. Hijoz Arabistonda Makka va Madina hamda ular atrofidagi pasttekislikka ishora qilingan maqom nomi. Bu maqomning O'rta Osiyo, Xuroson va Ozarbayjonda qo'llaniladigan nomi Segohdir. Rahoviy - Rum shaharlaridan birining nomi, ba'zi mulohazalarga ko'ra, u "rah" yoki "roh" yo'l ma'nolarida keladi. "Zangula" so'zi tuya bo'yniga ilinadigan yoki do'mbiraga bog'lanadigan qo'ng'iroq ma'nosida keladi. "Iroq" iborasi ma'lum mamlakatning nomi va unga nisbatan berilgan O'n ikki maqom va Shashmaqomdagi muayyan maqom nomidir. Isfahon cronnning mashhur shaharlaridan biri. Zirafkand pastga sakrash, tushish degan ma'nolarini beradi. Zirafkandning "uzzol" ma'nosi ham bor. Buzurg-katta, ulug' ma'nolarida kelib, ulug' maqom demakdir. Shashmaqomdagi shaklida juda ko'p kuy va ashulalarni o'z ichiga oladi. O'n ikki maqom tizimiga ular asosida ishlangan Ovoz nomi bilan mashhur bo'lgan olti turli lad uyushmalari, maqomlarning shoxobchalar hisoblangan ularning 24 ta shobalari kiradi. Shoba deyilganda maqomlarning shoxobchalar tushuniladi Sho'balar XV-XVII asr risolalarida yigima to'ladi. Ular Daph Segoh, Chorgoh, Panjgoh, Ashiran, Navro'zi Arah, Mohur, Navro'al Xoro, Navro'zi Bayotiy, Hisor, Nuhaft, Uzzol, Avi Nis Mubarqa', Rakb, Sabo, Humoyun, Zovuly, Isfahonak yoki Ro'yı Iroq, Bastayi Nigor, Nihovand, Javzły, Muxayyar

Safiuddin Urmaviy nota yaratish ishiga ham katta hissa qo'shdi notaning bir necha namunalarini ixtiro qildi. Urmaviyning birinchi nota yozuv tizimi harfli notatsiya edi. Urmaviy yaratgan nota suvi tizimining olamshumul tarixiy ahamiyati shundan iboratki, bu notatsiya maqom yo'llarining o'tmishdagi qiyofasini tasavvur etishga imkon yaratadi.

Bu davrning yana bir yorqin namoyandası Mahmud iba Ma'sud Qutbiddin ash-Sheroziydir (1234-1310) Ash-Sheroziy Sherva shahrida tavallud topgan. Dastlabki bilimlarini o'z elasidan olgan (tabib), undan so'ng mashhur Nasrikdin at-Tusiy qo'lida tahsil kovdi Uzoq muddat sayohatdan so'ng ash-Sheroziy Tabrizga qaytadi dars berish bilan bir qatorda turli ibnly asarlarga izohlar yuradi bunday asarlar qatoriga Ibn Sinoning "Tib qonunlari asari ham kiradi. Mahmud Sheroziy arab, fors tillarini yaxshi bilgan va o'z asarlarini ham shu tillarda yozgan. Olimning fors tilida yozilgan kitoblari orasida mashhur quously asari "Durratut-toj li g'urratisd-Deboj deb nomlanadi. Asarung musiqa soxasiga aloqadorlik tosnoni mavjudligi sababli, shu dave musiqa san'ati o'rganilishi kesimida ko'rib chiqiladi

A. Navoiy muzikani goyat sevar va uning ulkan bilimdoni edi. Hatto uning o‘zi ham muzika asarlari ijod qilish bilan shu gullanardi. Bobir «Bobirnom»sida, shoir Zaynuddin Vosifiy ning «Badosul-vaqoe’» («Ajib voq voqealar») kitobida Hirotda yashab ijod qilgan muzikachilar faoliyati keng tasvirlangan.

Qulmuhammad pa Husayn Udiy sud va gjjavna sud Chaluvchi) dar. Shayx nadi, A Navoiyning bir qator gazal lariga kuy bastalagan Xo‘ja Abdulla Marvarid, bir qancha chogu asboblarda kuylar chala oladigan, har xil qoniqlar ijod qala olgan Mirza Bayram va boshqalar ar shular jumlasidandir. Qusavi Boyqaro saroyida muzikachilarning to‘la shtatlari bo‘lib, ular Temurning nabirasi Mironshohini o‘g‘li mashkur ning rahbari Temurning nogorachi Sayid Ahmad edi. Darvishali Changiy da risolvenda S yid Ahmadni «Tengi yo‘q san’atkor, dunyoning barcha ulug‘ na ka chiklarining bezagi» deb atagan edi. A. Navoiy muzikani hamda uning juda katta ijtimoiy taz svrnii yaxshi tushunar edi. Uning fikricha muzika ma’noli, to sirli bo‘lib, xalq va uning hayoti bilan mustahkam boglanishi lozim. O‘zi yaratgan qahramonlar (Farhod va Shirin, Lavan na Majnun va boshqalar) ruhiy holatini xarakterlar ekan, A. Na voiy ishq va go‘zallikni muzika asbobi sadosi bilan, qushlar qo‘shig‘i bilan qiyoslaydi. Shoir sozandalar, hofizlar va raqkoalar ishtirokidagi ziyofatlar tasviriga katta o‘rin beradi. salar «Farhod va Shirin» dostonida hamma yerda lirik, shodon, epik kuylar yangrayotganini shunday tasvirlaydi:

Tutub har sori bir chii pozanini,
Tuman ming noz ila bir zarf chini.
Hamul pardardi so‘zga ohi onnig, Inodin nolai jongohi oning.
Birovkim ishqdin qilsa rivoyat,
So‘rub hardam mukarrar ul hikoyat. Yetishgach hajr sharhi zor yig‘lab,
Ikki ko‘z aylabon xunbor yiglab.
Navoiy, o‘z ijodi haqida so‘zlab, o‘zini «yangroq» (ya’ni musi qiy) g‘azallarida ma’no va hayajon, qayg‘u va hasratlarni bayon qiluvchi kuychi deb ataydi:

E. Navoiy ishq agar ko‘nglungni majruh etmadi, Bas nedurkim qon kelur ogzingdin afgon aylagach.

Navoiy asarlari goyat musiqiy. Shoir xalq qo‘shiqlarini yaxshi bilgan va sevgan edi. Uzlinig «Mezon ul-avzon» («Vazilar o‘lcho vi») risolasida bir qator yangi vazi o‘lchovlarini ko‘rsatib ber ganki, bu o‘lchovlardan o‘zbek va tojik shoirlari ularii xalq qo‘shiqlari (turkiy, changiy, qo‘shiq janrlari) dan o‘zlashtirgan holda foydalanganlar.

XV asrda cholg‘u asboblarda, xususan torli asboblarda muzika chalish keng tarqalgan edi. Asboblarning poetik tasviri XV asr da yashagan o‘zbek shoiri Ahmadiyning «Sozlar munozarasi» deb nomlangan original asarida batafsil berilgan. U «munozara» ya’ni adabiy bahs, tortishuvni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda buyuk allomalar yozib qoldirgan musiqiy - nazariy meros hozirgi kunda ham musiqa ilmining poydevorini tashkil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Madrimov Bahrom Xudaynazarov

O'zbek musiqa tarixi

Toshkent -2018

2. A. Jabborov,S. Begmatov, M. Azamova

O'zbek musiqa tarixi

Toshkent -2018

3. Sh. Ayxojayev, Ch. Ergasheva, A. Zokirov

O'zbek musiqa olami

Toshkent - 2021

4. A. Odilov OZBEK XALQ CHOLG'ULARIDA IJROCHILIK TARIXI

TOSHKENT "O'QITUVCHI" 1995

5. T. E. Salomonova O'ZBEK MUSIQA TARIXI

TOSHKENT "O'QITUVCHI" 1981

6. Nazarov A. Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida -T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1995

7. Oripov Z. 10-15-asrlar Markaziy Osiyo musiqa manbashunoslogi- T.: "Navro'z" . 2017

IMPLEMENTATION OF GAMIFICATION TECHNIQUE AS A TOOL FOR BOOSTING LANGUAGE SKILLS

Zoirova Dilnoza Anvar qizi

anvarovnadilnoza06@gmail.com

Student, Chirchik State Pedagogical University

Scientific adviser: Said-Fozilxon Akmalxonovich Akmalxonov

Teacher, Chirchik State Pedagogical University

Abstract: This article aims to explore the effect of applying gamification in language skills as a pedagogical approach to enhance students' academic performance in university settings. The researchers employed a mixed-method approach to examine the impact of gamification on language skills. Gamification involves integrating game elements and mechanics into non-game contexts, such as educational activities. The study finds out that gamification offers a promising